



UDK: 37.013:316.42:1

Alisher JURAYEV,

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Namangan davlat universiteti, Namangan

E-mail:alisherumida1987@gmail.com, ORCID

SOCIO-PHILOSOPHICAL CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF MODERNIZATION OF THE EDUCATION SYSTEM

Annotation

This article presents a scientific analysis of the socio-philosophical foundations of modernization of the education system. The study reveals the interrelation between the modernization of education and social development, its social necessity, and conceptual foundations. Particular attention is paid to modern educational paradigms, the transformation of education systems under globalization, and the role of innovative development. Based on the analysis of national and foreign scientific sources, the socio-philosophical essence of education system modernization is substantiated, and key directions and future prospects of its development are identified.

Key words: Education modernization, education system, socio-philosophical foundations, globalization, educational paradigms, innovative development, social development.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье научно проанализированы социально-философские основы модернизации системы образования. В исследовании раскрываются взаимосвязь модернизации образовательной системы с развитием общества, ее социальная необходимость и концептуальные основы модернизационных процессов. Особое внимание уделено современным образовательным парадигмам, трансформации системы образования в условиях глобализации и инновационного развития общества. На основе анализа отечественных и зарубежных научных источников обоснована социально-философская сущность модернизации образовательной системы, а также определены основные направления и перспективы ее дальнейшего развития.

Ключевые слова: Модернизация образования, образовательная система, социально-философские основы, глобализация, образовательные парадигмы, инновационное развитие, общественное развитие.

TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASHNING IJTIMOY-FALSAFIY KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim tizimini yangilash jarayonining jamiyat taraqqiyoti bilan o'zaro bog'liqligi, uning ijtimoiy zarurati hamda modernizatsiya jarayonining konseptual asoslari tizimli yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim paradigmalari, globallashuv sharoitida ta'lim tizimining transformatsiyasi hamda ta'lim modernizatsiyasining asosiy yo'nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim tizimini modernizatsiyalashning nazariy asoslari milliy va xorijiy ilmiy qarashlar asosida ochib berilib, ushbu jarayonning ijtimoiy-falsafiy mohiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, modernizatsiya, ijtimoiy-falsafiy asoslar, ta'lim paradigmasi, globallashuv, innovatsion rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, bilimlar jamiyati, ta'lim transformatsiyasi.

Kirish. Zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni hisoblanadi. XXI asda ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy munosabatlarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'yimoqda. Bu esa ta'lim mazmuni va shakllarini yangilash, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda ta'lim sifatini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy jamiyatda bilim va innovatsiyalar asosiy rivojlanish omiliga aylanganligi sababli ta'lim tizimini modernizatsiyalash dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada bilimlar jamiyatining shakllanishi hamda ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyati ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan [7].

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimini yangilash hamda uning samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [12].

O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, mamlakatimizda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'lim tizimini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda ta'lim sifatini oshirishga

qaratilgan muhim vazifalarni belgilab bergan [1]. Mazkur tadqiqotning maqsadi ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-falsafiy konseptual asoslarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu jarayonning nazariy mohiyatini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo ijtimoiy-falsafiy, pedagogik hamda boshqaruviy nuqtai nazardan turli olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy olimlar tomonidan modernizatsiya jarayonining nazariy asoslari jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda izchil tahlil qilingan. Jumladan, D.Bell postindustrial jamiyat nazariyasida bilim va axborotning jamiyat rivojlanishidagi ustuvor o'rnini asoslab bergan hamda zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining strategik ahamiyatini ta'kidlagan [7]. Shuningdek, A.To'ffler jamiyat rivojlanishining yangi bosqichida bilim va innovatsiyalar asosiy rivojlanish omiliga aylanishini qayd etgan.

Modernizatsiya va ijtimoiy transformatsiya jarayonlari A.Giddens hamda R.Inglehart tomonidan ham chuqur o'rganilgan bo'lib, ular modernizatsiya jarayonini jamiyat institutlarining yangilanishi va ijtimoiy qadriyatlarining o'zgarishi bilan bog'laydi [19]. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimini modernizatsiyalashni jamiyat rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashning pedagogik asoslari xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy ta'lim

konsepsiyalarida ham o'z aksini topgan. Xususan, J.Delors rahbarligida tayyorlangan xalqaro hisobotda zamonaviy ta'limning asosiy ustunlari sifatida bilim olish, faoliyat yuritish, jamiyatda yashash hamda shaxsiy rivojlanish kompetensiyalarini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan [14].

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimining rivojlanishi masalalari M.Castells hamda M.Fullan tomonidan o'rganilgan bo'lib, ular axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimini modernizatsiyalashning muhim omillaridan biri ekanligini asoslab bergan [12].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham ta'lim tizimini modernizatsiyalash masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, N.A.Muslimov pedagogik kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlagan. B.X.Xodjayev innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini asoslab bergan [20]. Shuningdek, Sh.M.Sharipov ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy modellari ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida muhim o'rin tutishini qayd etgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini modernizatsiyalash muammosi turli yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tizimli yondashuv asosida o'rganish hamda zamonaviy sharoitlarga mos konseptual yondashuvlarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini o'rganishda zamonaviy ilmiy metodologik yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli, qiyosiy hamda konseptual yondashuvlarga tayangan holda ishlab chiqildi. Ushbu yondashuvlar ta'lim tizimini jamiyatning murakkab ijtimoiy instituti sifatida chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosiy metodologik asos sifatida qo'llanildi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim tizimi o'zaro bog'langan tarkibiy elementlardan iborat yaxlit tizim sifatida qaraladi. Tizimli yondashuv nazariy jihatdan L.Bertalanffy tomonidan ishlab chiqilgan umumiy tizimlar nazariyasiga asoslanib, murakkab ijtimoiy jarayonlarni yaxlit tizim sifatida o'rganish zarurligini asoslab beradi [9]. Mazkur yondashuv orqali ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining asosiy komponentlari hamda ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida tahlil va sintez metodlari keng qo'llanildi. Tahlil metodi yordamida ta'lim tizimini modernizatsiyalashga oid ilmiy manbalar tizimli ravishda o'rganildi hamda ularning asosiy nazariy g'oyalari ajratib olindi. Sintez metodi esa turli ilmiy qarashlarni umumlashtirish hamda yagona ilmiy xulosalar shakllantirish imkonini berdi. Mazkur metodlar ilmiy bilish jarayonining muhim vositalari sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi. Ushbu metod yordamida ta'lim tizimini modernizatsiyalash bo'yicha xorijiy va milliy tajribalar o'rganildi hamda ularning umumiy va o'ziga xos jihatlari aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil ta'lim tizimini rivojlantirishda samarali bo'lgan model va mexanizmlarni aniqlash imkonini beradi. Bu borada zamonaviy ta'lim tizimlarini boshqarish hamda rivojlantirishning xalqaro tajribalari muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi [11].

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida ilmiy umumlashtirish hamda nazariy modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy umumlashtirish orqali turli ilmiy manbalar asosida ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy yo'nalishlari tizimlashtirildi. Nazariy modellashtirish esa ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining konseptual asoslarini ishlab chiqish hamda uning istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash imkonini berdi. Nazariy modellashtirish usuli murakkab ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda samarali metod sifatida e'tirof etiladi.

Mazkur metodologik yondashuvlardan foydalanish tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, tanlangan metodlar ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini kompleks

tarzda ochib berish hamda ushbu jarayonning asosiy qonuniyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Ta'lim tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-falsafiy asoslarini tahlil qilish jarayonida zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy yo'nalishlari hamda ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalar aniqlashtirildi. O'rganilgan ilmiy manbalar va nazariy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat rivojlanishida bilim va innovatsiyalar asosiy resurs sifatida e'tirof etilib, ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi strategik roli tobora ortib bormoqda [7]. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimini modernizatsiyalashning asosiy omillaridan biri globallashtirish jarayonlarining jadallashuvi bilan bog'liqdir. Globallashtirish natijasida axborot almashinuvining kengayishi, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hamda xalqaro hamkorlikning kuchayishi ta'lim tizimining mazmuni va shakllarini yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlar zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi bilan izohlanib, ta'lim tizimini yangi texnologik muhitga moslashtirishni talab etadi. Bu borada zamonaviy tarmoq jamiyati nazariyasida ta'lim tizimining transformatsiyasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [12]. O'tkazilgan ilmiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimini modernizatsiyalashning muhim yo'nalishlaridan biri kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv shaxsning nafaqat nazariy bilimlarni egallashini, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish hamda ijtimoiy faoliyatda samarali ishtirok etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda muhim nazariy asoslardan biri sifatida e'tirof etiladi [10].

Tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, axborotdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ta'lim jarayonini interfaol shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri sifatida qaralmoqda [18]. Shuningdek, o'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi muhim omillardan biri ekanligi aniqlandi. Zamonaviy ta'lim tizimi pedagoglardan innovatsion yondashuvlarni qo'llash, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [20].

Olib borilgan ilmiy tahlillar asosida ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining asosiy tarkibiy yo'nalishlari aniqlashtirildi. Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida yangilash;
- kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish;
- raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish;
- pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;
- ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish.

Mazkur natijalar ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini aniqlash imkonini berdi. O'tkazilgan tahlillar asosida ushbu jarayonning quyidagi asosiy xususiyatlari aniqlashtirildi:

- Birinchi, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida jamiyatning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy jamiyatda

bilimlar iqtisodiyotining shakllanishi ta'lim tizimining jamiyat taraqqiyotidagi o'rini yanada mustahkamlamoqda [8].

Ikkinchidan, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni ijtimoiy transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va qadriyatlar tizimining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon ijtimoiy institutlarning yangilanishi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi [19].

Uchinchidan, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni innovatsion rivojlanish tamoyillariga asoslangan bo'lib, yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion rivojlanish zamonaviy jamiyatning asosiy rivojlanish mexanizmlaridan biri hisoblanadi [17].

To'rtinchidan, ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimi jamiyatning madaniy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim institut sifatida faoliyat yuritadi [16].

O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining konseptual modelini shakllantirish zarurligi aniqlandi. Ushbu model ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlarini o'zaro bog'langan holda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, olib borilgan ilmiy tahlillar ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni ko'p qirrali va tizimli xususiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

1. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jamiyat rivojlanishining muhim omili bo'lib, bilimlar jamiyati shakllanishi hamda inson kapitalining rivojlanishini ta'minlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyat sharoitida ta'lim tizimi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning asosiy resursiga aylanmoqda [8].

2. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimining mazmuni va shakllarini yangilashni talab etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim tizimini transformatsiyalashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda [12; 18].

3. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yondashuv shaxsning nazariy bilimlari bilan bir qatorda amaliy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi [10].

4. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim omil bo'lib, bu jarayon ta'lim sifatini oshirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi [20].

5. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayoni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy barqarorligi hamda madaniy rivojlanishining asosiy institutlaridan biri hisoblanadi [16].

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida muntazam yangilab borish hamda kompetensiyaviy yondashuvni barcha ta'lim bosqichlarida keng joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish hamda ta'lim jarayonini interfaol shaklda tashkil etishga xizmat qiladi.

3. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi [20].

4. Ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish zarur. Xalqaro tajribalar asosida zamonaviy boshqaruv modellarini joriy etish ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [11].

5. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim sifatini monitoring qilish hamda baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bu jarayon ta'lim tizimini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020. – 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston – 2030 strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi nashri, 2023. – 112 b.
3. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 83 p.
4. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 45 p.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2016. – 198 b.
6. Bell D. The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. – New York: Basic Books, 1973. – 507 p.
7. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1964. – 187 p.
8. Bertalanffy L. General System Theory: Foundations, Development, Applications. – New York: George Braziller, 1968. – 289 p.
9. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2000. – 597 p.
10. Delors J. Learning: The Treasure Within. – Paris: UNESCO Publishing, 1996. – 302 p.
11. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2007. – 304 p.
12. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Stanford: Stanford University Press, 1990. – 186 p.
13. Inglehart R. Modernization and Postmodernization: Cultural, Economic and Political Change in 43 Societies. – Princeton: Princeton University Press, 1997. – 453 p.
14. Durkheim E. Education and Sociology. – New York: Free Press, 1956. – 143 p.
15. Parsons T. The Social System. – New York: Free Press, 1951. – 575 p.
16. Toffler A. The Third Wave. – New York: Bantam Books, 1980. – 544 p.
17. Xodjayev B.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2020. – 256 b.
18. Muslimov N.A. Kasbiy kompetentlik va pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2015. – 312 b.
19. Sharipov Sh.M. Ta'lim boshqaruvi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2018. – 284 b.
20. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti, 2006. – 220 b.